



Ma'naviyat- jamiyat rivojlanishining muhim omili

Berkinov Oybek Toxir o'g'li

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti o'qituvchisi

oybekberkinov98@gmail.com

Nurxonov Nurislombek Safarboy o'g'li

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti 2-bosqich talabasi

nurislombeknurxonov@gmail.com

Annotatsiya. Xalqimiz ma'naviyatini yanada yuksaltirishda o'ziga xos yo'lidan borayotgan mamlakatimiz taraqqiyotining ustivor yo'nalishlaridan biri ekanligini, ma'naviyat barcha insonlarning milliy va umuminsoniylik darajasini yuksaltirishi ushu maqolada aks ettirilgan. Har bir jamiyatda ma'naviyatning mohiyatini chuqur anglash muvafaqqiyat garovidir.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, jamiyat, ma'rifat, umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, ma'naviy meros, taraqqiyot.

Abstract: It is reflected in this article that one of the priority directions of the development of our country, which is on its own path, is to raise the spirituality of our people, and that spirituality raises the national and universal level of all people. A deep understanding of the essence of spirituality in any society is a guarantee of success.

Key words: spirituality, society, enlightenment, universal values, national values, spiritual heritage, development.



Абстракт: В данной статье отражено, что одним из приоритетных направлений развития нашей страны, идущей по своему пути, является повышение духовности нашего народа, а духовность повышает национальный и общечеловеческий уровень всех людей. Глубокое понимание сути духовности в любом обществе является залогом успеха.

Ключевые слова: духовность, общество, просвещение, общечеловеческие ценности, национальные ценности, духовное наследие, развитие.

Respublikamizning bugungi ma'naviy-ma'rifiy hayotida asrlarga teng sezilarli o'zgarishlarni ko'rsak bo'ladi. Asriy qadriyatlarimiz va milliy an'analarimiz tiklanmoqda va mustahkamlanmoqda. Xalqimiz ma'naviyatini yanada yuksaltirishda o'ziga xos yo'lidan borayotgan mamlakatimiz taraqqiyotining ustivor yo'nalishlaridan biri ekanligini yaqqol ko'rsa bo'ladi.

Har bir jamiyatda ma'naviyatning mohiyatini chuqur anglash muvafaqqiyat garovidir. Chunki ma'naviyat-insonning insoniylik mohiyati, shaxsdagi ijobiy fazilatlar qiyofasi majmuidir. U inson hayotining tub mohiyatini belgilaydigan aqliy, ruhiy, axloqiy va jismoniy qarashlar, ko'nikmalar, odatlar tizimidir.

Ma'lumki, muqaddas zaminimizda qadimdan milliy urf-odat va an'analarimizni yosh avlod ongiga singdirishda, ularni jismonan barkamol, ma'nan yetuk, mehr-oqibatli insonlar qilib tarbiyalashda oila muhiti muhim o'rin egallab kelgan. Keksalarning ibratli hayot yo'li, o'g'itlari, yillar silsilasida toblangan tajribasi yoshlarimizning to'g'ri yo'lni tanlashlarida yo'l boshchi vazifasini o'tamoqda. Ma'naviyat – har bir insonning milliy va umuminsoniy komillik darajasi, unga etaklovchi, undovchi imkoniyat. U inson shaxsini insoniylik bilan boyituvchi, kamol toptiruvchi, ko'rkamlashtiruvchi beqiyos hayotiy omil. Ma'naviyat – yaxshilik va ezgulikka moyil, yomonlik va yovuzlikdan tiyilish, nafosat va haqiqatga, halollik va rostgo'ylikka intilish, o'zi mansub jamiyatning axloqiy, huquqiy, ma'rifiy-madaniy mezonlariga amal qilish hissidir.



Ma'naviyat va ma'rifat aql-zakovat, salohiyat yuksakligining muhim mezonini va manbai hisoblanadi. Bu orqali inson millat mahsulini millat va mamlakatning yuksak moddiy va ma'naviy boyliklari darajasiga ko'taradi.

Ma'naviyat va ma'rifat davlat ichki hayotida tinchlik, barqarorlikni vujudga keltiradi, har qanday munozarali masalalarni aql va vazminlik bilan hal qilishda xalq ruhiyatini shakllantiradi.

Ma'naviyat va ma'rifat kishilarni subyektiv, qarindosh-urug'chilik, mahalliylik manfaatlarini ehtirolarga berilishidan saqlaydi, shaxsiy va mahalliy manfaatlarini millat hamda Vatan manfaatlariga uyg'unlashtirish muhitini vujudga keltiradi, millatning umubashariy qadriyatlar sari intilishini kuchaytiradi. Ma'naviyat va ma'rifat mamlakatda adolatni qaror toptirish, insonlarni qonunlarning ijodkori va itoatkori darajasiga ko'taradi. Qonunlar davlat, millat va shaxsning har qanday harakatining aniq me'yori darajasiga aylangan mamlakatda demokratik ruhdagi adolatli qadriyatlar shakllanishi mumkin bo'ladi. Ta'kidlash joizki, istiqlolga erishgunga qadar, O'zbekiston tarixi biryoqlamalilik bilan talqin etildi, ko'plab faktlar buzib ko'rsatildi yoki ular haqida sukut saqlandi. Davr taqozosiga ko'ra, mustabid tuzum davrida vijdon azobini ko'p tortgan, insonning qadr-qimmatini, el-yurt taqdiri haqida qayg'urib yashaydigan insonlar va ularning oldingi qatorida ijod ahli bo'lgan.

Ma'naviyatning tarkibiy tizimi

Ma'naviyat – shaxsning ruhiy hayot tajribasi, ruhiy olamini, dunyoqarashini, aqliy salohiyatini o'zida mujassamlashtiradi. U shaxsning va millatning o'zligini anglashi, milliy g'urur, milliy iftihar, vatanparvarlik, davlatga hurmat, jamoa an'analariga xayrixohlik, diyonat, mehr-shafqat, poklik, halollik, vijdonlilik, rostgo'ylik, adolatparvarlik, kamtarinlik kabilarni o'z ichiga oladi. Ma'naviyat yo'li – bosqichma-bosqich o'tiladigan yo'l. Inson aqlini tanigandan boshlab, tafakkur, axloq va ma'rifatda kamolotga intiladi. Jamiyat ma'naviyati, uning rivoji ham uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyotning natijasi hisoblanadi. Jamiyat asta-sekin rivojlanib borgan sari inson ma'naviyati ham tarkibiy jihatdan mukammallashib borgan. Ma'naviyatning eng qadimgi asoslarini axloqiy, diniy va badiiy qarashlar tashkil qiladi. Davlatning yuzaga kelishi bilan ma'naviyatning siyosiy, falsafiy va



ilmiy shakllari yuzaga kelgan. Shunday qilib, ma'naviyatning tarkibiy tizimini quyidagilar tashkil qiladi:

- ✓ tarbiyaga oid qarashlar va axloqiy ta'lim;
- ✓ diniy qarashlar va diniy ta'lim;
- ✓ badiiy qarashlar va badiiy ta'lim;
- ✓ falsafiy qarashlar va falsafiy ta'lim;
- ✓ siyosiy qarashlar va siyosiy ta'lim;
- ✓ huquqiy qarashlar va huquqiy ta'lim;
- ✓ ilmiy qarashlar va fan jami tabiiy va gumanitar fanlar ham shu guruhga kiradi.

Bularning har qaysisi tadqiq predmetiga ega. Ular ma'lum ijtimoiy vazifani bajarishga da'vat etilgan bo'lib, jamiyat taraqqiyoti va ma'naviyatli komil insonni tarbiyalashda muhim mavqe tutadi.

Bu masala har bir jamiyatda yetakchi o'rinda turmog'i lozim. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek: "biz ko'p yillar davomida ma'rifat va madaniyatga noto'g'ri munosabatda bo'ldik. Unga sarflanadigan mablag'lar doim boshqa sohalardan kam bo'ldi. Natijada biz bu masalada orqada qolib ketdik. Bundan buyon barcha rejalarimizda madaniyat, ma'rifat, jismoniy tarbiya va sport birinchi darajali vazifalar qatoridan joy olishi lozim. Va nihoyat, shu sohalarda va shifokorlar, madaniy-oqartuv muassasalaridagi va boshqa sohalardagi ko'plab mutaxassislar-chinakam ziyolilardir".

Ma'rifat – mohiyatan aql-idrok, tafakkurning mayog'i, mijozning murabbiysi, qalbda munavvarlikni, insoniy ulug'vorlikni qaror toptiruvchi umriy vosita, iymon-e'tiqod, harakter, lafzning me'mori, vujudning jon tomiri. U – bilish, tanish, ilm va madaniyatning kamol topish mazmuni, usul va vositalaridir.

Ma'naviyat va ma'rifat va inson tushunchalari bir butun holdagina muayyan mazmunga ega bo'ladi. Ma'naviyat yo'q joyda ma'lum maqsadga qaratilgan insoniy faoliyat ham bo'lmaydi, insonlar jamoasining birligi – jamiyat ham bo'lmaydi. Ma'naviyatning ahamiyatini ana shu nuqtai nazardan baholamoq kerak.



Ma'naviyat va ma'rifat davlat ichki hayotidagi bir butunlikni, odamlar ruhiyatidagi ko'tarinkilik va kelajakka ishonchni, aql-zakovat yuksakligini, o'z faoliyatida tinchlikni, millatlararo hamjihatlikni barqaror rivojlantirish yo'lini aniq belgilashdagi o'z fuqarolarning orzu-umidlarini, manfaatlarini ifoda eta bilish, uni buyuk kelajak sari harakatga yo'naltirish va unga rahbarlik qilish salohiyati hisoblanadi. Ma'naviyat va ma'rifatning yangi jamiyatni qurishdagi qudratli kuch va bebaho manba ekanligi quyidagi masalalarda o'z ifodasini topadi va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ularga alohida e'tibor qaratiladi.

Ma'naviyat va ma'rifat jamiyat oldida turgan muammolar mohiyatini o'zida ifoda ettiradi hamda uni hal qilish uchun fuqarolar va davlat manfaatlarini birlashtiradi. Ma'naviyati va ma'rifati zamonaviy rivojlangan mamlakatlarda xalqning vatanparvarlik va millatparvarlik tuyg'ulari kuchli bo'ladi. Bunday holat o'z navbatida davlat va xalqning birligini mustahkamlashda turli xil millatlar va ijtimoiy qatlamlarning bir-birlari bilan umummanfaatlar yo'lida jipslashishlarida qudratli omil sifatida xizmat qiladi.

Ma'naviyat va ma'rifat bor joyda ehtiyojlar va zaruriyatlar ham yuzaga keladi. O'z navbatida ehtiyojlar va zaruriyatlar shaxs, millat va davlatni kechagidan bugun, bugundan ertaga yana ham yaxshiroq hayot kechirishga, barkamol bo'lishiga etaklaydi, shaxs, millat va davlatning taraqqiyoti sari harakat qilishga da'vat etadi. Bu jarayonda ma'naviyat va ma'rifat shaxs, millat va davlat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi bosh omil hisoblanadi. Ma'naviyat, uning asosi bo'lgan yuksak axloq, ruhiy poklik, qalban uyg'oqlik, bedor vijdon, mustahkam iymon bahor nafasiga o'xshaydi. U shakllanib, rivojlanib borarkan o'z yo'lida qancha gullash fasllarini ko'rdi, ayozlarning ta'qibu tahdidlarini boshdan o'tkazdi. Uning faraxbash nafasi ta'siri qanchalar mavjud bo'lsa, afsuski unga qarshi sovuq yellar ham shunchalar mavjuddir. Mustaqillik mamlakatimizda yashayotgan har bir insonning o'z imkoniyati va iqtidorini namoyon etish uchun keng yo'l ochib berdi. Shaxs o'zining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini erkin qondirish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Xalqning milliy qadriyatlari qayta tiklanib, shaxs ma'naviy taraqqiyotiga xizmat qila boshladi. Mustaqil taraqqiyotimizning dastlabki kunlaridanoq xalqimizning boy ijodiy,



ma'naviy-madaniy merosini, tarixini tiklash masalalari asosiy vazifaga aylandi. Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini rivojlantirish va uni yo'q bo'lib ketgan turlarini qaytadan tiklashning davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlanishi, hunarmandchilik maktablarining rivojlanishi, yoshlarga hunar o'rgatilishi, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish bilan bir qatorda, bularning barcha - barchasi milliy o'zligimizni anglashga bo'lgan intilish, ma'naviyatimiz poydevorini mustahkamlaydi

Xulosa. Barkamol inson tarbiyasini tashkil etish azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi, millat ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. Bu g'oya nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari boshlagan, ularni ma'naviyat va ma'rifat sohasida ulkan yutuqlarga erishishga undagan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga etkazish haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi yo'q. Shu bois, mamlakatimizda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyati tobora o'sib borayotganligi ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashni muhim masala sifatida kun tartibiga qo'yimoqda. Ma'naviy kamolotga erishish ta'lim-tarbiya, bilim - ma'rifat, ezgu fazilatlar va yaxshi xulq bilan birga zamonaviy rivojlanish tamoyillari, innovatsion texnologiyalarni ham taqozo etadi. Har bir sohada modernizatsiya, diversifikatsiya va innovatsiyalar joriy etilsagina ham iqtisodiy, ham ma'naviy yuksalish bo'ladi, raqobatbardoshligi oshadi. Ma'naviy – ma'rifiy ishlarda an'anaviylik va zamonaviylikning uyg'unlashuvi ta'lim jarayonida innovatsiyalarni qo'llash bilan bevosita bog'liq jarayon hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.
2. Ziyomuhammadov B., Ziyomuhammedova S., Qodirova S. Ma'naviyat asoslari. T.: O'zbekiston Milliy etiklopediyasidavlat ilmiy nashriyoti, 2000.



3. Рахмонова Г. Ш. и др. АХЛОҚ–ШАХС ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ЮҚОРИ МАЪНАВИЙ ПОЙДЕВОРИ //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 160-165.
4. Рахмонова Г. Ш. и др. ТАЛАБА-ЁШЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. –2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 108-113.
5. Rakhmonova G. S. The Content of the Development of Spiritual and Moral Competencies of Students //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 179-183.
6. Rakhmonova G. S. Development of Spiritual and Moral Competencies in Students as a Pedagogical Problem //International Journal of Culture and Modernity. – 2021. – Т. 11. – С. 311-314.
7. Рахмонова Г. Ш. РАЗВИТИЕ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ: DOI: 10.53885/edinres. 2021.30. 30.038 Рахмонова ГШ, научный исследователь кафедры «Дошкольное образование» БГУ, Асадова Вазира, одарённый студент факультета Дошкольного образования БГУ //Научно-практическая конференция. – 2021. – С. 96-97.
8. Shavkatovna R. G. Methods of formation of spiritual and moral competencies in the education of future teachers //Academicia: an international multidisciplinary research journal. – 2021. – Т. 11. – №. 2. – С. 976-980.
9. MILLIY QADRIYATLAR ORQALI OILADA BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASHNING AHAMIYATI».S Jabborova - ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 2022
10. The ways to promote healthy lifestyles in preschools. S.Z. Jabborova - ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2022
11. The ways to Promote Healthy Lifestyles in Preschools JS Zoirovna - EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN ..., 2022.